

## KASBIY SIFAT VA KASBIY KOMPONENT MUTANOSIBLIGI

Otanazarova Mohira Hamidbekovna,  
BuxDU doktoranti

## PROFESSIONAL QUALITY AND PROFESSIONAL COMPONENT RATIO

Otanazarova Mokhira Khamidbekovna, Doctoral student of  
BuxDU

## ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ КАЧЕСТВО И СООТНОШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПОНЕНТОВ

*Отаназарова Мохира Хамидбековна, докторант БухДУ*

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada pedagog o‘z ixtisosligi bo‘yicha ta’lim va tarbiya ishlari yuzasidan jamiyat oldida mas‘ul shaxs ekanligi, shu bilan birgalikda, o‘z ustida muntazam ravishda kasbiy tayyorlarligini takomillashtirib borishi, o‘qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, pedagog huquqiga ega bo‘lishi, aniqrog‘i, kasbiy kompetensiya egasi bo‘lishi, yetuk mutaxassis bo‘lish yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, kasbiy rivojlanishning psixologik asoslari haqida ma‘lumot berilgan bo‘lib, psixologiyaning shaxs rivojlanishidagi umumiy roli va vazifasi ham keng yoritilgan. Kasbiy rivojlanishning psixologik mazmuni harbiy psixologiya negizida tahlil qilingan.

*Kalit so‘zlar:* inson kamoloti, millat ravnaqi, kompetentli, kasbiy kompetensiya, mutaxassis, o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, intellektual, salohiyat.

*Abstract:* In this article, it is stated that a pedagogue is a person responsible for the education and upbringing of his specialty before the society, at the same time, he must regularly improve his professional training, teacher, teacher, teacher, educator. , to have the right to be a pedagogue, to be more precise, to be the owner of professional competence, the ways to become a mature specialist are explained. Also, information is given about the psychological foundations of professional development, and the general role and function of psychology in the development of the individual is also widely covered. The psychological content of professional development is analyzed on the basis of military psychology.

**Keywords:** human development, national development, competent, professional competence, expert, self-awareness, self-management, independent thinker, creative seeker, intellectual, potential.

**Аннотация:** В данной статье утверждается, что педагог – это человек, ответственный по своей специальности за образование и воспитание перед обществом, в то же время он должен регулярно повышать свою профессиональную подготовку педагога, воспитателя. Также даются сведения о психологических основах профессионального развития, а также широко освещаются общая роль и функция психологии в развитии личности. Психологическое содержание профессионального развития анализируется на основе военной психологии.

**Ключевые слова:** человеческое развитие, национальное развитие, компетентность, профессиональная компетентность, эксперт, самосознание, самоуправление, независимый мыслитель, творческий искатель, интеллектуал, потенциал.

**KIRISH.** Ta’lim-tarbiya inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovidir. Ta’lim-tarbiya jarayonlari davlat nazoratidagi umummilliy masala hisoblanadi. Mamlakatimizda ta’lim, ya’ni o‘qitish tarbiya bilan uyg‘unlikda olib boriladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta’lim jarayonini tubdan yaxshilashni talab qilar ekan, kompetentli pedagoglarni tayyorlashda ham ana shu talablardan



[https://orcid.org/  
0009-0001-2993-3002](https://orcid.org/0009-0001-2993-3002)

e-mail:

[otanazarovamohira15@mail.  
com](mailto:otanazarovamohira15@mail.com)

kelib chiqqan holda yondashilishi ko‘zga tashlanadi. Kompetensiyalilik yoki o‘ta mahoratlilik, oliv malakali pedagoglarni tayyorlash zamonamizning eng dolzarb masalasiga, aytish joiz bo‘lsa, davlat va jamiyatning eng asosiy vazifasiga aylangan. Bugungi kunda jamiyat uchun butunlay yangi qiyofadagi mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, yuksak kasbiy mahorat va intellektual, ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan yetuk mutaxassisga bo‘lgan talab tobora oshib bormoqda. U ilmiy taraqqiyotga ziyraklik bilan qaray olishi, yangiliklarni tez idrok eta olishi va ularni o‘z amaliy faoliyatida qo‘llovchi mutaxassis bo‘lib yetishishi lozimdir. Zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarini tayyorlashning asosiy yo‘llaridan biri kompetensiyaviy yondoshuv va kasbiy sifatlarni o‘zaro bog‘liq ekanligidir.

Zamonaviy ta’lim o‘z-o‘zidan kompetensiya nuqtai nazaridan yondashuv masalasini ko‘ndalang qo‘ymoqda. Bu albatta, kasb jihatdan kompetentligi bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlashni talab qiladi. Ta’limning asosiy maqsadi talabada ijtimoiy zarur sifatlarni va kompetensiyani, shaxs sifatida o‘z-o‘zini anglash, o‘z bilimlarini doimiy oshirib borish, o‘z-o‘zini boshqarib borish va faollashib borishi zarur, chunki pedagog o‘z ixtisosligi bo‘yicha ta’lim va tarbiya ishlari yuzasidan jamiyat oldida mas‘ul hisoblanadi. U muntazam ravishda o‘z kasbiy tayyorgarligini takomillashtirib borish bilan birgalikda o‘qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, pedagog huquqiga ega bo‘lishi, aniqrog‘i, kasbiy kompetensiya egasi bo‘lishi lozimdir. O‘qituvchi uchun o‘zi tanlagan kasb, fan, mutaxassislik borasidagi amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qilib qoldi. U har qanday vaziyatda ta’lim-tarbiyaning yangi usullari va metodlarini o‘z faoliyatida qo‘llay olishi, bir so‘z bilan aytganda, kompetensiya egasi bo‘lishi lozimdir.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METOD.** Y.P.Povarenkovaning tadqiqotlari doirasida kasbiy sifatlarni tizimli, dinamik va muvozanatli, inson kasbiy taraqqiyotining boshqa elementlari: kasbiy o‘z-o‘zini anglash, kasbiy o‘z-o‘ziga baho, kasbiy komponentlik bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan voqelik sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kasbiy sifatlarni quyidagicha tahlil qiladi:

<sup>1</sup> N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayev - Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent. Sano-standart, 2015-y.

a) subyektning kasbiy faoliyatidagi tendensiya va uning kasbiy taraqqiyotidagi yetakchi ko‘rsatkich;

b) kasbiy faoliyat, kasbiy shakllanish davomida va o‘ziga mutaxassis sifatidagi munosabati negizida yuzaga keluvchi emotsiyonal holat;

v) subyekt kasbiy faoliyatida funksional tizim shaklida amalga oshuvchi tuzilmadir.

Y.P.Ermolaevaning ta’kidlashicha, kasbiy sifatlar - ijtimoiy sharoitlarga bog‘liq bo‘lgan shaxsiy va kasbiy taraqqiyotning mahsulidir. Muallif kasbiy sifatlar faqatgina kasbni yuqori darajadagi mahorat bilan boshqarish orqali shakllanadi va faoliyat jarayonining asosiy elementlarini barqaror muvofiqligi sifatida namoyon bo‘ladi, degan g‘oyadan kelib chiqadi. Kasbni egallash bosqichi va shunga muvofiq kasbiy sifatlar darajasini tahlil qilish subyektning o‘zi bilan kasbni identifikasiya qilish darajasi kasbiy sifatlar funksiyasini amalga oshirish imkonini aniqlash mumkinligini ko‘rsatdi.

A.G.Bermusning fikriga ko‘ra, “Kompetentlik takomillashib borayotgan shaxsning barcha hislatlarini, bilimi, tajribasi, umuman olganda, butun borlig‘ini yagona tizimga birlashtiradi”. “Kompetentlik bu nafaqat shaxsning bilimdon ekanligi, balki o‘z bilimlarini uzlusiz ravishda yangilab borishi hamdir”, - deydi M.A.Choshanov. M.Aronovning fikricha, kompetentlik mutaxassisning ma’lum bir faoliyat uchun tayyor ekanligini bildiradi.

**MUHOKAMA.** “Kompetensiya” lotincha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “munosib”, “to‘g‘ri keladi” yoki “mos keladi” ma’nolarini anglatadi. O‘z bilim, mahorat va amaliy tajribalarni qo‘llagan holda oddiy va murakkab masalalarni yecha olishga munosib inson deb tushunsa bo‘ladi. Ko‘p hollarda “kasbiy kompetentlik” atamasi qo‘llaniladi. Bu so‘zni kasbiy vazifalarini amalga oshirishda o‘z amaliy tajribalari, bilim va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyati deb tushunsa bo‘ladi<sup>1</sup>.

Kasbiy sifatlarni tadqiq qiluvchi jahon psixologlari uchun psixik voqeliklarni strukturaviyiligi va sistemaliligi tamoyili, sifatlarning genetik o‘zaro bog‘liqlik darajasini qidirish, kasbiy faoliyatni o‘zlashtirish va amalga oshirish jarayonidagi shak-

lanishini tadqiq qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu jahon tadqiqotchilarining an’anaviy va konseptual metodologik bazasi bo‘lib, quyidagilarga xizmat qiladi: kasbiy faoliyatdagi sistemagenez, shaxsnинг kasbiy shakllanishi, mehnat faoliyati hisoblanadi.

**NATIJALAR.** Bundan kelib chiqadiki, kompetensiya nuqtayi nazaridan yondoshuv, mazkur jamoa yoki shaxs ana shunday kompetensiya egasi, nihoyat, pedagogik kasbiy kompetensiya egasi deb qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, har qanday holatda ham, kompetensiya ma’lum bir shaxs yoki jamoaning jamiyatdagi o‘rnini belgilab beradi. Uni ham qonuniy, ham axloqiy munosabatlari bilan mustahkamlaydi. Jamiyatdagi biron-bir guruh, jamoa yoki shaxs ma’lum bir soha bo‘yicha yuksak malaka va bilimlarga ega bo‘lib o‘z sohasida kompetensiya egasi bo‘lib shakllanadi hamda ushbu vakolatini muntazam ravishda takomillashtirib bora-di. Bu masalaga jamiyatning manfaatlari yuzasidan yondoshiladi. Shaxs esa o‘z kompetensiyasini takomillashtirib borish orqali, eng avvalo, o‘zining hayotiy manfaatlarini amalgalashadi, shu bilan birga jamiyatning shaxsga qo‘yayotgan talablari darajasiga erishadi. Kompetensiya nuqtayi nazaridan yondashuv haqidagi ilmiy ishlarni tahlil qilar ekanmiz, bu ikki tushuncha haqida turli-tuman fikrlar ayti-layotganligini yaqqol sezamiz.

Kasbiy kompetentlik tamoyillari:

1. Kasbiy bilim va malakaning shakllanganligi;
2. Obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarni mavjudligi;
3. Yuksak kasbiy madaniyatga ega bo‘lish;
4. Komputer hamda informatsiyon va kommunikatsion texnologiyalar (IKT) bo‘yicha savodxonlik<sup>2</sup>.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, hozirgi zamonda fan va texnika taraqqiyoti o‘qituvchining ijodkor bo‘lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishini, fan yutuqlarini o‘quvchilarga yetkaza olishini va nihoyat o‘quvchilarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariiga o‘rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o‘qituvchi, avvalo tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarurdir. O‘qituvchi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish davomida omillarni to‘playdi, ular

asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o‘zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon o‘qituvchisi uchun zarur bo‘lgan juda muhim fazilatlarni egallaydi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Nizamova, S. H. "The Role of Pedagogical Games in the Personal Development of Primary School Students." International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.
2. Nizamova, Sh U., and Munosibxon Ganieva. Didactic Basics of Teaching Elementary School Technology Science. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.
3. Nizamova Shahnoza, and Munira Akbarova. Lexicalsemantic analysis of some nicknames. Theoretical & applied science. Учредители: Теоретическая и прикладная наука 10: 563-565.
4. Nizami, Shahnaza Obeydullaevna, and Rovshan Surobjonovna Egamova. Improving the Efficiency of Extracurricular Work in Technology Lessons in Elementary Grades. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.
5. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayev - Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent. Sano-standart, 2015-y.
6. Nizamova, S. H. The Role of Pedagogical Games in the Personal Development of Primary School Students. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.
7. Nizamova, S., & Turakhojayeva, A. (2023). Majolis unnafois. By A. Navoyi is one of the important sources of uzbekin nicknames.
8. Shakhnoza,N., & Sevara,O. (2022). Linguistic analysis of pseudonyms of uzbek women in the field of creativity and art. International journal of social science & interdisciplinary research. ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(10), 294-298.
9. Shahnoza,N. (2023). Adabiy taxalluslarning yuzaga kelish omillari. England, modern psychology and pedagogy: problems and solution, 10(1).
10. Shahnoza,N. (2023). Adabiy taxalluslarning vazifalari. Germany, modern scientific research: achievements, innovations and development prospects, 9(1).

<sup>2</sup> N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayev - Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent. "Sano-standart" 2015-y.